

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA MAHALLA INSTITUTINING ROLI

Madrimov Ixtiyor Baxtiyor o‘g‘li

Urganch davlat universiteti, Tarix fakulteti talabalasi

ixtiyor_madrimov94@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalla institutining roli haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, voyaga yetmagan, pedagogik profilaktika, jinoyatchilik, javobgarlik, yoshlar yetakchisi, oila, mahalla va ta’lim.

Annotation: This article will talk about the role of mahalla Institute in the implementation of State Youth Policy in Uzbekistan during the years of independence.

Keywords: youth, underage, pedagogical prevention, crime, responsibility, youth leader, family, neighborhood and education.

Аннотация: В данной статье рассказывается о роли института махалли в реализации государственной молодежной политики В Узбекистане в годы независимости.

Ключевые слова: молодежь, несовершеннолетние, педагогическая профилактика, преступность, ответственность, молодежное лидерство, семья, соседство и образование.

Hozirgi paytda globallashuv jarayoni kuchayishi natijasida yoshlarni turli buzg‘unchi g‘oyalar, mafkuraviy xurujlar ta’siridan asrash jahon hamjamiyatining muhim va dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Boisi, kelajak taraqqiyoti haqida qayg‘uradigan har bir davlat avvalo, o‘z yoshlarining jismoniy, intellektual va ruhiy jihatdan chiniqqan avlod bo‘lib voyaga yetishidan manfaatdor. Chunki jismonan va ma’naviy yetuk sog‘lom yoshlar mamlakat taraqqiyotining muhim kafolatidir.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI-asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”¹, -deb ta’kidlab o‘tgan. Har bir mamlakatning kelajagi va taraqqiyoti ko‘p jihatdan yoshlar hamda ularning ma’naviy kamolotiga bog‘liq ekan, avvalo yoshlar termini va bu atamaga xalqaro hamjamiyatda, shuningdek, O‘zbekistonda qanday ta’rif berilishiga to‘xtalib o‘tish joiz. Masalan, YUNESKO qonunchiligiga ko‘ra 17-25 yoshdagi shaxslar² yoshlar hisoblansa, MDH davlatlari va Rossiyaning amaldagi qonunchiligiga muvofiq, yoshlar 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan

¹ Mirziyoyev SH.M. *Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir. Xalq so‘zi*, 2017 yil 1 iyul.

² Topildiev O. *O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning tutgan o‘rni (1991-2008 yy.)*, Tarix fanlari nomzodi diss., –T.: 2011 y. B. 17

fuqarolardir. Yevropaning aksariyat mamlakatlarida, AQSH va Yaponiyada qabul qilingan “yoshlar” tushunchasi 13-14 yoshdan to 29-30 yoshgacha belgilanadi.³ Bizning milliy qonunchiligimiz esa o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslarni yoshlar yoki yosh fuqarolar⁴ deb atashni nazarda tutadi. Statistika ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlar toifasi turli mamlakatlarda turlicha tavsiflanadi, biroq ular orasidagi tafovut katta emas va ko‘zlangan maqsad bitta – yoshlarni davlat siyosatini amalga oshiruvchi asosiy kuch sifatida tarbiyalashdir. O‘zbekistonda davlat va xalq o‘rtasida mustahkam hamkorlikni o‘rnatishda o‘zini o‘zi boshqarish organlari – mahalla instituti muhim rol o‘ynaydi.

2016-yilga kelib mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarimiz tashkil etgan⁵. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 2022-yil 1-yanvar holatiga 35 271,3 ming kishini tashkil etib, 2021-yilda 712,4 ming kishiga yoki 2,1 % ga o‘sd⁶. Statistika ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston tug‘ilish nisbatan yuqori mamlakatlar qatoriga kiradi va kelajakda ham mamlakat aholisining umumiy sonida yoshlarning salmog‘i yuqori bo‘lishini kuzatish mumkin. Bu orqali O‘zbekistonni yoshlar mamlakati deb e‘tirof etiladigan maqomi yanada mustahkamlanadi.

2016-yil 14-sentyabrda yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida O‘zbekistonda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur qonun asosida yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantiradigan, turli xil yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish borasida tashkiliy va huquqiy jarayonlarni tizimli ravishda rivojlantirib borish orqali yangicha yondashuvlarga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ushbu qonun 1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonundan bir qator jihatlariga ko‘ra farq qiladi. Jumladan, amaldagi qonunda yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar hamda ularning vazifa va vakolatlari alohida moddalar bilan aniq ravshan belgilab berilganligi e‘tiborga loyiqdir. Xususan, qonunning 18-moddasi to‘laligicha yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ya‘ni mahalla institutining ishtirokiga, ularning amalga oshiradigan vazifalariga bag‘ishlanganligi bilan harakterlidir.⁷ Yoshlar siyosatini amalga oshirishda mahalla institutiga alohida e‘tibor berilishining boisi, mahalla tuzilmasi uzoq tarixdan xalqimizning urf-odatlarini e‘zozlanadigan, yoshlar ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish, ularning ongida vatanparvarlik, insonparvarlik kabi ulug‘vor

³ Topildiev O. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning tutgan o‘rni (1991-2008 yy.), *Tarix fanlari nomzodi diss.*, –T.: 2011 y. B. 18

⁴ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 37-son, 426-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 26.01.2022-y., 03/22/747/0064-son.

⁵ Mirziyoev SH.M. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlati- ni birgalikda barpo etamiz.* – T.: O‘zbekiston, 2016 y. B.13

⁶ <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/5259-demografik-holat-5>

⁷ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 37-son, 426-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 26.01.2022-y., 03/22/747/0064-son

fazilatlarni kamol toptirishda asosiy rol o'ynaydigan demokratik maskan sifatida e'tirof etiladi. Amalga oshirilgan demokratik islohotlar natijasida bugungi kunga kelib mahalla institutining vazifa va vakolatlari soni ortib bormoqda hamda ular orasida yosh avlodni tarbiyalash masalasi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarga nazar tashlab, mahalla instituti boshqaruviga kiritilgan demokratik yangilanishlar orqali uning mavqeyini mustahkamlashga qaratilgan sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirilganligini kuzatish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (PQ-92-son, 19.01.2022 y.)ga binoan, har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. Mazkur lavozimni kiritilishidan bevosita mahalla yoshlarini bandligini ta'minlash ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish hamda jonkuyar va fidoyi, Vatan mudofaasiga hamisha shay farzand qilib tarbiyalash ko'zda tutilgan.

Darhaqiqat, mahalla instituti boshqa organ va muassasalar singari yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda muhim vazifalarni bajaradi. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan yoshlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo'shimcha moddiy yordam ko'rsatadi. Shuningdek, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish, yoshlarni tarbiyalash masalalari yuzasidan ta'lim muassasalari va boshqa muassasalar bilan doimiy ravishda hamkorlik o'rnatadi. Bu o'rinda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda muhim tizim hisoblangan "oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligini alohida qayd etish lozim.

Dono xalqimiz tomonidan "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan maqol bejizga aytilmagan. Aynan "oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi natijasida yoshlar tarbiyasi, ta'lim olish sifati oshib, yangi imkoniyat yo'llari kengayadi. Bu borada mahalla fuqarolar yig'ini faollarining ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash maqsadida huquqiy asoslar takomillashtirib borilmoqda. Biz yashayotgan asrda axborot **texnologiyalarining** tobora rivojlanayotganligi, hayotimizning katta qismida internetga bog'liqligimiz sababli yoshlarda elektron tarmoqlar bilan ishlash madaniyatini kuchaytirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda ham internetdan foydalanuvchilar soni 9,8 million kishidan oshib ketdi. "Uz" domenida 16 mingga yaqin veb-saytlar faoliyat olib bormoqda, 200 dan ortiq veb-sayt OAV sifatida ro'yxatga olingan.⁸ Internet olamiga shiddat bilan kirib kelayotgan O'zbekiston oldida yoshlarni internetdan foydalanish savodxonligi bilan birga madaniyatini ham yuksaltirish vazifasi muhim sanaladi. Mazkur vazifani bajarishda "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi tizimli ravishda faoliyatni yo'lga qo'yishi kerak bo'ladi.

⁸ Saifnazarov.I., Saifnazarova F. *Yoshlar va oila – Vatan tayanchi. T.: Ta'lim nashriyoti, 2018. – B. 74*

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlardan yana biri mahalla oqsoqoliga o'z hududidagi ishsiz aholini mehnat bandligi bilan ta'minlashda qo'shimcha vakolatlar berilishini huquqiy jihatdan ta'minlaganiga alohida to'xtalib o'tish lozim. Bugungi kunda jahon miqyosida ko'pchilik mamlakatlarni aholi bandligini ta'minlash masalasi jiddiy xavotirga soladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham aholini ish bilan ta'minlash masalasi muhim davlat siyosati darajasidagi ustuvor masala hisoblanadi. Bandlikni ta'minlash borasidagi mavjud muammolar ijobiy hal etilishida "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida mehnat munosabatlarini tartibga solish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 944-sonli Qarori muhim rol o'ynaydi. Ushbu Qaror asosida tasdiqlangan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida mehnat munosabatlarini tartibga solish to'g'risida **Nizomning 2-bob, 5-qismiga binoan** fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) mahallalar hududida yashaydigan ishsiz shaxslarni jamoat ishlariga jalb qilish uchun ular bilan mehnat shartnomalari tuzish huquqiga ega va ularning mehnatiga O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasi mablag'lari hisobidan haq to'lanadi.⁹ Natijada mahalla oqsoqoli o'z hududidagi ishsiz, kam ta'minlagan aholini belgilangan yuridik tartibda ish bilan ta'minlash, o'zining tavsiyasiga binoan mahalladagi tadbirkorlik layoqatiga ega bo'lgan yoshlarni bankdan imtiyozli kredit olib tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishiga sharoit yaratib bermoqda.

Darhaqiqat, amalga oshirilayotgan islohotlar orqali bugungi kunda mahalla institutining vazifa va vakolatlari kengayib, mahalliy hokimiyat idoralari bajaradigan ko'plab funktsiyalarni o'z zimmasiga olishi natijasida xalq bilan davlat o'rtasida mustahkam ko'priklar vazifasini bajarib, jamiyatning eng muhim bo'g'iniga aylanib bormoqda. Mazkur vakolatlar esa mahalla institutining fuqarolar oldidagi ma'suliyatini yanada oshishiga sabab bo'lmoqda. Mahalla instituti jamiyatning kichik, lekin asosiy boshqaruv bo'g'ini ekanligi, uning tashabbusi va bevosita ishtiroki orqali o'z hududidagi yoshlar bilan yaqindan, hech qanday to'siqlarsiz ularning hayotida mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash imkoniyatini kengaytiradi. Demak, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mahalla tuzilmasi muhim institut hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir. Xalq so'zi, 2017-yil 1-iyul.
2. Topildiyev O. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning tutgan o'rni (1991-2008 yy.), Tarix fanlari nomzodi diss., –T.: 2011. B. -17-18.
3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 37-son, 426-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi,

⁹ Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida mehnat munosabatlarini tartibga solish to'g'risida Nizom. 2017 yil 27 noyabr <http://lex.uz/docs/3426881>

24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 26.01.2022-y., 03/22/747/0064-son.

4. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016 y. B.13

5. <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/5259-demografik-holat-5>

6. Saifnazarov.I., Saifnazarova F. Yoshlar va oila – Vatan tayanchi. T.: Ta'lim nashriyoti, 2018. – B. 74

7. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida mehnat munosabatlarini tartibga solish to'g'risida **Nizom. 2017 yil 27 noyabr** <http://lex.uz/docs/3426881>